



FORMATION AND ACTIVITIES OF PROSECUTOR'S OFFICES IN INDEPENDENT UZBEKISTAN

Yovqochti Keldibekov

Student at the Faculty of Law

Namangan State University

Science ID: BSR-0726-0010

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Prosecutor's Office, prosecutorial oversight, rule of law, rule of law, Constitution, powers of the prosecutor's office, law enforcement agencies.

Received: 26.07.26

Accepted: 27.07.26

Published: 28.07.26

Abstract: This article examines the development of the prosecutor's office in independent Uzbekistan. It examines the emergence of prosecutorial bodies and their place in the public administration system. Based on this, it explores the legal foundations of the prosecutor's office's activities during the period of independence, in particular, changes in its powers and objectives enshrined in the Constitution and special laws, and summarizes development trends.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA PROKURATURA IDORALARINING SHAKILANISHI VA FAOLIYATI

Yovqochti Keldibekov

Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Ilmiy identifikatsiya raqami: BSR-0726-0010

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Prokuratura, prokuror nazorati, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, Konstitutsiya, prokuratura vakolatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada prokuratura institutining mustaqil O'zbekiston sharoitida vujudga kelishi, ularning davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni yoritiladi. Shu asosda, mustaqillikdan so'ng prokuratura faoliyatining huquqiy asoslari, xususan, Konstitutsiya va maxsus qonunlar doirasida uning vakolatlari, vazifalaridagi o'zgarishlar ochib beriladi hamda hamda rivojlanish tendensiyalari umumlashtiriladi.

ФОРМИРОВАНИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРОКУРАТУР В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Ёвкочти Келдибеков

Студент юридического факультета

Наманганского государственного университета

Научный идентификационный номер: BSR-0726-0010

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Прокуратура, прокурорский надзор, верховенство закона, правовое государство, Конституция, полномочия прокуратуры, правоохранительные органы.

Аннотация: В данной статье рассматривается формирования института прокуратуры в условиях независимого Узбекистана. Рассматриваются вопросы возникновения органов прокуратуры, их места в системе государственного управления. На этой основе раскрываются правовые основы деятельности прокуратуры в период независимости, в частности, изменения в ее полномочиях и задачах, закрепленные Конституцией и специальными законами, обобщаются тенденции развития.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish jarayonida prokuratura organlari faoliyati ham yangicha huquqiy asosda qayta shakllantirildi. Sobiq sovet tuzumidan meros bo‘lib qolgan markazlashgan nazorat tizimi bosqichma-bosqich zamonaviy huquqiy davlat talablariga moslashtirildi. Mazkur jarayonda prokuratura organlarining faoliyat yo‘nalishlari, vakolatlari hamda institutsional o‘rni qayta ko‘rib chiqildi va zamon talablari asosida takomillashtirildi .

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan huquqiy islohotlar natijasida prokuratura organlarining vakolatlari va funksiyalari yanada takomillashtirildi. Xususan, jinoyatlarni tergov qilish ustidan nazoratni amalga oshirish, davlat ayblovini sudlarda qo‘llab-quvvatlash, tezkor-qidiruv faoliyatining qonuniyligini ta‘minlash hamda sud qarorlarining qonuniyligini tekshirish kabi yo‘nalishlar rivojlantirildi hamda hokimiyatlar bo‘linishi prinsipini mustahkamlash maqsadida ayrim vakolatlar qayta taqsimlanib, xususan, sanksiya berish vakolatining sud organlariga o‘tkazilishi prokuratura faoliyatining demokratik asoslarini kuchaytirishga xizmat qildi .

Mustaqillik davrida amalga oshirilgan huquqiy islohotlar prokuratura institutining mazmun-mohiyatini har tomonlama anglash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur

institutning tarixiy shakllari bilan zamonaviy holatini qiyosiy tahlil qilish uning evolyutsion taraqqiyotini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Avvalo, tarixiy prokuratura institutining asosiy xususiyati uning davlat manfaatlarini himoya qiluvchi qat'iy markazlashgan nazorat organi sifatida shakllanganidadir. Xususan, Rossiya imperiyasi va keyinchalik Sovet davrida prokuratura organlari keng vakolatlarga ega bo'lib, ular davlat hokimiyati organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda mansabdor shaxslar faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshirgan. Bu davrda prokuratura faoliyatining ustuvor yo'nalishi davlat siyosatini ta'minlash va ijro intizomini mustahkamlashdan iborat bo'lgan. Natijada, prokuratura instituti ko'proq davlat apparatining ajralmas nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo'lgan.

Mustaqil O'zbekiston sharoitida esa prokuratura institutining mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun asosida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa prokuratura faoliyatining nafaqat shaklan, balki mazmunan ham demokratiklashganini ko'rsatadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, prokuratura vakolatlarining hajmi va yo'nalishlarida ham sezilarli farqlar mavjud. Tarixiy davrda, ayniqsa Sovet tizimida, prokuratura organlari haddan tashqari keng vakolatlarga ega bo'lib, ular deyarli barcha sohalarga bevosita aralashuv imkoniyatiga ega edi. Masalan, 1922-yilning 31-oktabrida "Turkiston ASSRda Prokuratura nazorati to'g'risida" qabul qilingan Nizomga ko'ra, mazkur tashkilotga soliq tizimini yaxshilash vazifasi ham yuklatilgan. Yuklatilgan vazifalar doirasida prokuratura organlari tomonidan yagona qishloq xo'jalik solig'ini to'lashda dehqonlarga nisbatan soliq idoralari xodimlari tomonidan qilingan tahdidlar aniqlanib, 20 ta noqonuniy harakat haqida ish qo'zg'atilgan. Mustaqillikdan keyingi davrda esa prokuratura tizimiga oid vakolatlar aniq huquqiy chegaralar bilan belgilandi, ayrim funksiyalar boshqa davlat organlariga o'tkazildi. Xususan, sanksiya berish vakolatining sud organlariga o'tkazilishi hokimiyatlar bo'linishi prinsipini mustahkamlashga xizmat qildi. Natijada prokuratura faoliyati asosan nazorat, muvofiqlashtirish hamda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash yo'nalishlariga ixtisoslashtirildi.

Bundan tashqari, prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplari ham tubdan yangilandi. Tarixiy prokuratura tizimi asosan markazlashgan boshqaruv va buyruqbozlik tamoyillariga asoslangan bo'lsa, zamonaviy O'zbekiston prokuraturasi qonuniylik, mustaqillik, oshkoralik va adolat prinsiplari asosida faoliyat yuritadi. Bu esa uning huquqiy davlat tamoyillariga mos ravishda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, prokuratura organlarining jamiyatdagi oʻrni va roli ham sezilarli darajada oʻzgargan. Tarixiy davrda prokuratura asosan davlat manfaatlarini himoya qiluvchi nazorat organi sifatida faoliyat yuritgan boʻlsa, hozirgi davrda u fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi muhim institut sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu oʻzgarish prokuratura faoliyatining ijtimoiy yoʻnaltirilganligini kuchaytirganligini koʻrsatadi.

Shunday qilib, tarixiy va zamonaviy prokuratura tizimlari oʻrtasidagi asosiy farqlar ularning maqsad va vazifalarida, vakolatlar hajmida hamda faoliyat prinsiplari mazmunida namoyon boʻladi. Bunday holat qonun ustuvorligini taʼminlashning umumiy vazifa sifatida belgilanganligidan koʻrish mumkin.

Xulosa qiladigan boʻlsak, mustaqillikdan soʻng Oʻzbekiston Respublikasida prokuratura organlari tizimi tubdan oʻzgartirib, uning faoliyati zamonaviy huquqiy davlat talablariga mos ravishda shakllantirilgani koʻrinib turibdi. Natijada, prokuratura organlarining asosiy vazifalari nafaqat nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, balki mamuriy, iqtisodiy, fuqaroviy sud jarayonlarida qonun ustuvorligini taʼminlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga yoʻnaltirildi.

Prokuratura tizimidagi tarixiy shakllanishlar va zamonaviy tizim oʻrtasidagi asosiy oʻzgarishlarni tahlil qilinganda, tarixiy tizimda davlat manfaatlari ustuvor boʻlgan boʻlsada, zamonaviy tizimda inson huquqlari va qonun ustuvorligi asosiy oʻringa chiqqanligi, ularni faoliyatidan yaqol koʻrinib turibdi. Shu bilan birga, har ikkala jarayoni bogʻlab turuvchi muhim jihat — qonun ustuvorligini taʼminlash funksiyasini ozida saqlanib qolganidadir. Natijada, bugungi kunda u Oʻzbekiston Respublikasida huquqiy davlat qurilishining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “Oʻzbekiston”, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonuni, 1992-yil 9-dekabr.
3. “2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi” // Lex.uz.URL.11.06.2026
4. “Xalq soʻzi” gazetasi, 2001-yil 30-avgust
5. Islamov Z, Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi. – T.: Adolat, 2019.
6. Басков В. Прокурорский надзор. – М.: Юридическая литература, 1982.
7. Прокуратура. Санкт-Петербург, 1987. – Л. 6. Lex.uz.URL.11.05.2026
8. Umirzakova M. Turkistonda soliq siyosati va uning oqibatlari (1917-1924-yy). Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Fargʻona, 2025. – 150 b.